



FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 10 - oktabr

174-11-154-Q/23

Buvayda tuman hokimligi

Avtomobil yo‘llari yoqasida joylashgan maktab o‘quvchilarini avtomobil yo‘lini kesib o‘tishida xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ushbu yo‘lda haraktlanuvchi avtotransport vositalari tezligini pasaytirish uchun sun‘iy notekislik tashkil etish hamda tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

Tuman hududidagi avtomobil yo‘llari yoqasida joylashgan maktab o‘quvchilarini avtomobil yo‘lini kesib o‘tishida xavfsizligini ta‘minlash va ushbu yo‘nalishda haraktlanuvchi avtotransport vositalari tezligini tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, Buvayda tumani Ichki ishlari bo‘limining 2023 yil 18 sentabrdagi xatini ko‘rib chiqib va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Buvayda tumani Ichki ishlari bo‘limining 2023 yil 18 sentabrdagi tumanda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida maktablar joylashgan avtomobil yo‘llariga avtotransport vositalari tezligini pasaytirish uchun sun‘iy notekislik va tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risidagi xati inobatga olinsin.

2. Buvayda tumani Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi tasarrufidagi quyidagi avtomobil yo‘llariga:

- 4H-972 “Yangiqo‘rg‘on shaharchasi – Oqtom – Karimbobo” avtomobil yo‘lining 1-3 km oralig‘ida joylashgan 1 va 6-maktablar;

- 4K-884 “Qoratepa - Qirg‘izqo‘rg‘oncha” avtomobil yo‘lining 4-8 km

oralig`ida joylashgan 8, 9 va 41-maktablar;

- 4K-883 “Yangiqo`rg`on shaharchasi – Qo`rg`oncha - Jov” avtomobil yo`lining 4-18 km oralig`ida joylashgan 11, 12, 35 va 42-maktablar;

- 4K-885 “O`roqchi – Buvayda” avtomobil yo`lining 3-8 km oralig`ida joylashgan 21, 22 va 33-maktablar;

- 4K-866 “Yangiqo`rg`on – Buvayda - Gul” avtomobil yo`lining 1 km qismida joylashgan 15-maktab;

- 4K-882 “Beshterak – Arab” avtomobil yo`lining 7-8 km oralig`ida joylashgan 29-maktab;

- 4K-883b “Oltinqo`rg`on qishlog`iga” avtomobil yo`lining 1 km qismida joylashgan 31-maktab;

- 4K-912 “Buvayda q – ShBK” avtomobil yo`lining 1 km qismida joylashgan 39-maktab;

- 4K-881 “Uchko`prik – Jaloyer - Arab” avtomobil yo`lining 19 km qismida joylashgan 48-maktablar oldiga avtotransport vositalarini tezligini pasaytirish, maktab o`quvchilarini avtomobil yo`lini kesib o`tishda xavfsizligini ta`minlash maqsadida sun`iy notekislik tashkil etish va tegishli yo`l belgilarini o`rnatishga ruhsat berilsin.

3. Tuman IIB YHXB boshlig`i, tuman Yo`llardan foydalanish unitar korxonasi direktori bilan birgalikda vakolatlari doirasida kelishuv asosida ushbu qarorda ko`rsatilgan sun`iy notekisliklar hamda yo`l belgilarini me`yoriy xujjatlarda ko`rsatilgan ko`rinishda va balandlikda o`rnatilishini ta`minlash vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (A.Shokirov) ushbu qarorni ro`znomada nashr etilishini va tuman hokimligining veb-saytida joylashtirilishini ta`minlasin.

5. Ushbu qarorni ma`sullarga yetkazish vazifasi tuman hokimligi devonxona bo`limi mudiri Sh.Aliqulov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari S.Xizirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.